

1907-yili “Turkiston viloyatining gazetFda eski maktablar” tarafdori Mulla Husanxo’ja eshon bilan Is’hoqxon to’ra o’rtasida keskin munozara bo’lib o’tadi. Mulla Husanxo’ja domla eski maktablarni yengil-yelpi isloh qilish shiori bilan chiqadi, Ibrat esa eski maktablarni tubdan o’zgartirish, ular o’rta zamon talablariga javob beradigan maktablar ochish tarafdori bo’ladi. “Bolalarni eski maktablar ila jamoalarig’a taqsim qilib, kelib-ketish, kaltak va qamchi mas’alalarin isloh qilmoq-da albatta lozimdir. Lekin o’qilajak kitoblar - mazkur eski kitoblar, o’qilajak domlari-da - eski domlalar, maktablari-da - eski hasharot uyalari bo’lduqinda bu mas’alalar ming marotabalar isloh etilsa-da, bekor, behudadur” [5:163].

O’zi ochgan maktab xususida Ibrat “o’zumga qata’LIMI

Я

rashlik o’nta-o’n beshta bolalarni”, “hech bahra tortmay, behuda yurduqlarina jonim achib”, Qozondan bir muallim olib kelib, yangi usuldagi maktab ochdim deb izohlaydi. Unda yigirmadan ortiq bolalar uch oy bo’lmasdan savodi chiqib, yozadigan bo’lishganini, “to’rt-besh va yetti-sakkiz sanalar”da Qo’qonda “ara- biy mukolamag’a qodir bo’lib, har bir kitoblarni mutolaa etadurgon” bo’lganini yozadi.

Xulosa. Millatparvar shoir, olim Is’hoqxon Ibrat boshqa jadidlar kabi ilmni targ’ib, maorifni, maktabni isloh qilish bilan yurtning taraqqiyotga erishishiga umid qilgan, ishongan, harakat qilgan. Dunyo tajribasi ham taraqqiyot formulasi aynan shu ekanligini ko’rsatib tu- ribdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezidentimizning maktab ta’limi sohasiga doir fikriari (<http://insonhuquqlari.uz/oz/news/presidential-views-on-schooling>)
2. Vamberi H. Ma’rifat yo’lidagi uyg’onish // Tafakkur, 2000. 2-son. - 60-81.
3. Hop Muin. Tanlangan asariar. - Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
4. Dolimov U. Is’hoqxon Ibrat (<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/ulugbek-dolimov-ishoqxon-ibrat-1862-1937/71ng=lat>).
5. Ibrat Is’hoqxon. G’azallar, ilmiy va ma’rifiy maqolalar, tarixiy asariar. - Toshkent: Zabaijad Media, 2022.

Dilnoza MAMANOVA,

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
o’qituvchisi

ROMANLARDA MAKON, ZAMON VA OBRAZLAR O XSHASHLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sa’dixon Mavlavixon o’g’li Eshonjonovning “Tanazzul”pentologiyasi va Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani o’rtasidagi zamon-makon, obrazlararo uyg’unlik, voqealar rivojida o’xshash jihatlar ko’rib chiqilgan.

Kai it so’zlar: tarixiy janr, pentalogiya, Qo’qon xonligi, tarixiy shaxslar, tarixiy mavzu, pozitsiya, mingboshi, to’qima obraz, obrazlar xarakteri, Xudoyorxon davri.

Annotation. This article examines the time-space, inter-character harmony, and similarities in the development of events between Sa’di khan Mavlavikhon’s son Eshonjanov’s pentology “Decline” and Abdulla Qadiri’s novel “Bygone Days”

Keywords: historical genre, pentalogy, Kokand Khanate, historical figures, historical plot, position, fictional image, character of images, Khudoyorkhan period.

Аннотация. В данной статье рассматриваются время-пространство, межперсонажная гармония и сходство в развитии событий пенталогии Садиохана Эшонджанова “Деградация” и романа Абдуллы Кадыри “Минувшие дни”

Ключевые слова: исторический жанр, пенталогия, Кокандское ханство, исторические личности, исторический сюжет, позиция, выдуманный образ, характер изображений, период Худоярхана.

Yozuvchi tarixiy janrda yozishga kirisharkan, ta- rixiylik tamoyilini buzmasa, undan boshqa bir qolip yaratishga urinmasa, estetik ideali tarixiy haqiqatga monand bo’lsa, yetuk asar yarata oladi. Bunga yaqqol dalil Qo’qon xonligi haqidagi Abdulla Qodiriyning real voqelik bilan badiiy to’qimani uyg’unlashtirib yaratgan “O’tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlaridir. “O’tkan kunlar” muqaddimasida adib shunday yozadi: “Yozmoqqa niyatlanganim ushbu “O’tkan kunlar” yangi zamon ro’monchiligi bilan tanishish yo’lida kichkina bir tajriba,

yana to’g’risi, bu havasdir. Ma’lumki, har bir ish- ning ham yangi - ibtidoiy davrda talay kamchiliklari bilan maydonga chiqishi, ahlarning yetishmaktari ila sekin- sekin tuzalib, takomilga yuztutishi tabiiy bir holdir...” [1: 5]. Sa’dixon Mavlavixon o’g’lining “Tanazzul” pentalogi- yasi ham xuddi shu asosda dunyoga kelgan.

Asarni yozishda muallif “O’tkan kunlar”dan ilhomlan- gan. Buni, birinchidan, roman epigrafida, ikkinchidan, asarda Qo’qon tarixining yoritilishida, qolaversa, obraz- lardagi o’xshashlik kabilardan anglash mumkin. Birtar-

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

ixiy davr haqida hikoya qiluvchi Sa'dixon Mavlavixon o'g'lining "Tanazzul" asari bilan Abdulla Qodiriy romanlaridagi zamon va makon, tarixiy voqealar, obrazlari o'rtasidagi o'xshashlik bir-biriga g'oyatda mutanosibdir.

"Tanazzul" romaniga Abdulla Qodiriyning "Moziyga qaytib ish qilish xayrlik deydilar..." degan gapi epigraf sifatida olingani asarlar o'rtasidagi ilk bog'liqlikni ang-latib, Sa'dixon Mavlavixon o'g'li romanining g'oyasini ham belgilovchi jihat hisoblanadi. Darhaqiqat, Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" so'zboshisida "...Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tarixi- mizning eng kirliqora kunlaridan belgiladim" [1:5], deb yozadi. "Tanazzul" asari nomi ham Abdulla Qodiriyning yuqoridagi fikrlariga hamohang. Ya'ni Xudoyorxon davri, xonlikni tanazzulga tortayotgan vaziyat, qipchoqlarning hokimiyat boshqaruvini o'z qo'liga olgani, aka- ukalarning beklar nayranglariga uchib taxt talashishlari, Rossiya tomonidan xonlikni bosib olishga harakatlar va oxir-oqibat Turkistonni mustamlakaga aylantirgani - hamma-hammasi Qo'qon xonligidagi parokandalikning alomatlaridir. Ha, moziyga qaytib, puxta o'ylagan holda qilingan ishda xayr-baraka bo'ladi. Shunday ekan, tarix bizga har doim ko'zgu, eslatma, ibrat vazifasini o'taydi. Ushbu asarlarni yaratishdan har ikkala yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi ham shu jihatdan mushtarakdir.

"Tanazzul" romanidagi Saidbek va Qilich obrazlari talqinida ham xuddi "O'tkan kunlar"dagi Otabekning xatti-harakatlariga o'xshashlik kuzatiladi. Xudoyorxon ularni Rossiyaga o'qishga yuboradi. Dastlab imperator farmoniga binoan, ular Naplyuyev nomidagi kadet korpusida, keyin Qozonda tahsil oladi. Olti yil mobaynida rus, ingliz, arab

tilida ravon so'zlashishni, harbiy taktikalarni o'rganib, siyosiy jihatdan yetuk bo'lib qaytishadi. Ayniqsa, bu Saidbek misolida romanda yaxshi ochib berilgan. Xudoyorxon u bilan maslahatlashar, boshqa davlatlardagi ishlarni batafsil so'rab-surishtirar edi. "Uch yuz-to'rt yuz navkarni ularda rota deyishadi, ana shu navkarlar bir tekisda saf tortib podshoh, vazirlar turgan maydondan gursillab otsa, parad deyiladi" [3: 63] Asarlarda taraqqiyotdan ortda qolish, rivojlangan davlatlardan o'rnak olmaslik mustamlaka bo'lishga olib kelishi mumkinligi badiiy tarzda dalillanadi.

"Tanazzul" romani muallifi Qo'qon tarixiga doir ilmiy, badiiy asarlarni o'rgangan. Bunda Abdulla Qodiriy romanlaridan asosiy manba sifatida foydalangan. Ayniqsa, quyidagi parcha bu jihatdan diqqatimizni tortadi. Mallaxon Xudoyorxon tomonidan Toshkent hokimi etib tayinlangandan keyin xon beklar bilan yig'ilishda undan so'raydi:

" - Kattalarning ichida qo'shningiz ko'rinmaydi.

- Kimni aytyapsiz?

- Yusufbek hojini-da.

- Ha-a... Hoji bobomi? Kelinlari ko'z yorib, qazo qilgandan bu yog'iga o'rdaga qadam bosmay qo'ydilar" [2: 224]. Bu epizod "O'tkan kunlar"dagi voqea - Kumushning fojiali halok bo'lishiga ishora. Yozuvchi boshqa romanidagi to'qima xarakterni ham asarga kiritgani e'tiborga molik.

Xonliklar tarixida kechgan voqealar ham, shaxslari ham badiiy adabiyotda o'quvchi uchun muhim va vatanparvarlik hissini uyg'otuvchi asosdir. Abdulla Qodiriy merosidan bahramand bo'lish bu borada biz uchun tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Undan ta'sirlanib yozilgan "Tanazzul" kabi romanlarning ham adabiyotda o'rni bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. - Toshkent Navro'z, 2019.
2. Sa'dixon Mavlavixon o'g'li. Tanazzul. 1-kitob. - Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Sa'dixon Mavlavixon o'g'li. Tanazzul. 2-kitob. - Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Sa'dixon Mavlavixon o'g'li. Tanazzul. 3-kitob. - Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. Mamanova, D. "Tanazzul" romanida Musulmonqul mingboshi obrazining tavsifi // Interpretation and researches, (2024). 4(26).
6. Mamanova, D. Artistic parallelism in the novels «decline» and «the scorpion from the altar» // Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 2(1), (2024). 249-254.

Xamro ABDULLA YEV,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ROMANDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TALQINI

Annotatsiya. Maqolada Evril Turon (Mamadali Mahmudov)ning "Bu tog'lar- ulug' tog'lar" romani tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan. Romandagi obraz va personajlarning milliy qiyofasi, voqealar dinamikasida xarakterlarning shakllanish jarayoni, sujetlar halqasida voqeliklar uyg'unligi hamda milliy, umuminsoniy qadriyatlar tahlilga tortilgan.

Kai it so'zlar: roman, obraz, persona, qahramon, xarakter, sujet, voqelik, badiiy to'qima, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, uslub.